

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universitetining
2026-yil 16-yanvardagi
27-01-son buyrug'iga
16-ilova

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
tomonidan kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga kiritish uchun
korruptsiyaga qarshi qoidalarining (korruptsiyaga qarshi kurashish shartlari)
mazmuni bo'yicha

ASOSIY SHARTLAR

1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi,

tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni Universitet xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir Taraf Universitet xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korruptsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlar duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

ishonch telefoni;

Telegram-kanali (Maxsus bot:);

Universitetning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta